



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	



QORAQALPOQ NASRIDA INSON PSIXOLOGIYASI

Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI "Filologiya" fakulteti
"Qoraqalpoq tili va adabiyoti" mutaxassisligi 2 A kurs talabasi
(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri)

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi, qahramonlarning ichki dunyosi hamda ruhiy holatini badiiy aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Qoraqalpoq adabiyoti namoyandalarining asarlarida psixologizmning badiiy-estetik funksiyalari, qahramon xarakterini ochishda qo'llanilgan uslub va badiiy vositalar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yozuvchilarning inson ruhiyatidagi murakkab kechinmalar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy muhitning shaxs psixologiyasiga ta'sirini badiiy ifodalashdagi mahorati yoritilgan. Shuningdek, qoraqalpoq nasrida psixologik tasvirning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning badiiy asarning g'oyaviy-estetik mazmunini ochib berishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq adabiyotshunosligida psixologizmni o'rganish va badiiy tahlil metodologiyasini takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq nasri, inson psixologiyasi, psixologizm, badiiy xarakter, ichki monolog, ruhiy holat, adabiy tahlil, badiiy tasvir.

Abstract: This article examines the artistic representation of human psychology, the inner world of characters, and their emotional states in Karakalpak prose. It analyzes the artistic and aesthetic functions of psychologism, as well as the stylistic techniques and literary devices employed by Karakalpak writers to reveal the characters' personalities. The study highlights the authors' ability to depict the complexity of human emotions, internal conflicts, and the influence of the social environment on individual psychology through artistic expression. Furthermore, it explores the distinctive features of psychological portrayal in Karakalpak prose and its role in revealing the ideological and aesthetic content of literary works. The findings contribute to a deeper understanding of psychologism in Karakalpak literary studies and provide theoretical and practical insights for further research in literary criticism.

Key words: Karakalpak prose, human psychology, psychologism, literary character, interior monologue, emotional state, literary analysis, artistic representation.

Аннотация: В статье исследуются особенности художественного изображения психологии человека, внутреннего мира персонажей и их эмоционального состояния в каракалпакской прозе. Проанализированы художественно-эстетические функции психологизма, а также стилистические приёмы и художественные средства, используемые каракалпакскими писателями для раскрытия характера литературных героев. Особое внимание уделено художественному отражению сложных душевных переживаний, внутренних конфликтов и влияния социальной среды на психологию личности. Кроме того, раскрываются особенности психологического изображения в каракалпакской прозе и его роль в раскрытии идейно-эстетического содержания художественных произведений. Полученные результаты имеют теоретическое и практическое значение для дальнейшего развития каракалпакского литературоведения и исследований в области психологического анализа художественного текста.

Ключевые слова: каракалпакская проза, психология человека, психологизм, художественный характер, внутренний монолог, эмоциональное состояние, литературоведческий анализ, художественное изображение.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish eng muhim ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Inson kapitalini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va yuksak umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda so'z san'ati - adabiyotning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" ^[1]. Aynan shu sababli ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar davlat siyosatining markazida turibdi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishlarida ma'naviyat har doim boshqa sohalardan oldinda yurishi, jamiyatni harakatga keltiruvchi qudratli kuchga aylanishi lozimligi alohida ta'kidlab kelinmoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi ***Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida***gi Farmoni milliy adabiyotimiz taraqqiyotida yangi istiqbollarni ochib berdi ^[2]. Mazkur tarixiy hujjatda ijodkorlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, milliy adabiyotning eng sara namunalarini yaratishni rag'batlantirish hamda ularni xorijiy tillarga tarjima qilish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy asarlarda inson omilini, uning ruhiy dunyosi va ijtimoiy-psixologik qiyofasini tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, millat ma'naviyatini yuksaltirish, avvalo, inson qalbi va ruhiyatini chuqur anglash, uning ichki ziddiyatlari hamda ezgu intilishlarini badiiy tahlil qilish orqali amalga oshadi.

O'zbekistonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan Qoraqalpog'iston zaminida shakllangan o'ziga xos boy adabiy maktab mamlakatimiz madaniy xazinasini boyitib kelmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan qoraqalpoq madaniyati, san'ati va adabiyotiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasi sifatida Toshkent shahridagi muhtasham ***Adiblar xiyoboni***da qoraqalpoq adabiyotining ulug' namoyandalari - Berdaq G'arg'aboy o'g'li, To'lepbergen Qayipbergenov va Ibrayim Yusupovning salobatli haykallari o'rnatilgan. Shuningdek, Nukus shahrida Ibrayim Yusupov nomidagi ijod maktabining tashkil etilishi qoraqalpoq so'z san'atining nufuzini yangi bosqichga ko'tardi.

Adabiyotshunoslik ilmida nasriy asarning badiiy qimmatini ko'p jihatdan undagi voqealar rivojiga emas, balki ushbu voqealar markazida turgan inson xarakterining qanchalik chuqur va badiiy jihatdan mukammal ochib berilganiga qarab baholanadi. Inson psixologiyasi (badiiy psixologizm) yozuvchining qahramon ichki dunyosini, uning ongi va ongosti jarayonlarini, his-tuyg'ularini, ruhiy iztiroblarini hamda o'y-fikrlari dinamikasini maxsus badiiy vositalar orqali tasvirlash mahoratini anglatadi.

Jahon adabiyotshunosligida L. Tolstoy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan "qalb dialektikasi" (dialektika dushi) tushunchasi nasrda inson ruhiyatining uzluksiz o'zgarish va ichki ziddiyatlar jarayonida namoyon bo'lishini anglatadi. Badiiy asarda inson ruhiyatini ochishda yozuvchilar, asosan, quyidagi badiiy vositalardan foydalanadilar:

1. **Ichki monolog** - qahramonning o'zi bilan pinhona suhbatini bo'lib, uning yashirin niyatlari, ruhiy kechinmalari va ichki to'liqlanishlarini ochib beradi.
2. **Psixologik tahlil** - muallif tomonidan qahramonning xatti-harakatlari ortida yotgan ruhiy sabablarning bevosita izohlanishidir.
3. **Ruhiy parallelizm** - tabiat hodisalari va tashqi muhit holatining qahramonning ichki kechinmalariga uyg'un tarzda tasvirlanishidir.
4. **Tush ko'rish motivi** - qahramonning yashirin qo'rquvlari, orzu-istaklari va ichki ziddiyatlarining ramziy (majoziy) ifodasidir ^[3, 120].

Qoraqalpoq milliy nasri o'zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida xalq og'zaki ijodi hamda klassik she'riyat (Jiyen jirov, Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq) an'analari bilan oziqlandi. Biroq XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib, qoraqalpoq nasri janr jihatidan sezilarli darajada boyidi hamda uning markaziga lirik pafosdan ko'ra realistik tahlil va chuqur psixologizm ustuvor yo'nalish sifatida kirib keldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qoraqalpoq dostonchilik maktabidagi qahramonlik motivlari va tashqi konfliktlar (ziddiyatlar) vaqt o'tishi bilan nasrda ichki konfliktga, ya'ni insonning o'z nafsini, vijdonini va ijtimoiy burchini o'rtasidagi ziddiyatlarga ko'chdi. Bu borada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenov ijodi katta burilish yasadi. Adibning "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi, "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar" kabi asarlarida tarixiy voqealar fonida inson psixologiyasi, shaxs fojiasi va ruhiyati yuksak badiiy mahorat bilan tahlil qilingan.

T. Qayipbergenov qahramonlarining ruhiy dunyosini shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni ijtimoiy muhit, tarixiy sharoit va milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq holda chuqur psixologik tahlildan o'tkazadi.

Shuningdek, J. Aymurzayev, K. Sultonov, T. Seytjanov, O. Abdirahmanov kabi iste'dodli qoraqalpoq adiblari povest va hikoyalarda ham shaxsning individuallashuvi, uning ruhiy iztiroblari hamda jamiyat bilan munosabatlaridagi murakkab psixologik burilishlar o'z aksini topgan ^[4, 45].

Zamonaviy qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi mavzusi faqat ijtimoiy xarakter bilan cheklanmay, balki ekologik fojialar (Orol muammosi) keltirib chiqargan ruhiy tushkunlik va ma'naviy qadriyatlar almashinuvi jarayonidagi ichki evrilishlarni ham qamrab olmoqda.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi va badiiy psixologizm fenomenining o'ziga xos xususiyatlari, uning evolyutsion taraqqiyoti hamda qahramon xarakterini yaratishdagi funksional ahamiyatini ochib berishdan iborat.



Qo'yilgan maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

1. Adabiyotshunoslikda psixologik tahlil prinsiplari va vositalarining nazariy jihatlarini belgilash;
2. Qoraqalpoq yozuvchilarining yirik epik asarlarida (roman va povestlarida) inson ichki dunyosini tasvirlash usullarini qiyosiy-badiiy tahlil qilish;
3. Qahramon xarakteri va ruhiy holatini ochishda ichki monolog, dialog hamda tush motivlarining badiiy funksiyasini aniqlash;
4. Ijtimoiy-siyosiy hamda ekologik omillarning qoraqalpoq nasri qahramonlari psixologiyasida aks etish muammosini tadqiq etish.

Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasini o'rganish nafaqat estetik qimmatga ega, balki millat tafakkuri, xalqning o'ziga xos ma'naviy-ruhiy qiyofasi hamda bugungi globallashuv davridagi ichki kechinmalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu esa davlatimiz rahbarining adabiyot va ma'naviyat sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosati bilan hamohangdir.

Qoraqalpoq adabiyotida badiiy psixologizm maktabining shakllanishi, estetik jihatdan yuksalishi va jahon realistik adabiyoti andozalari darajasiga ko'tarilishi bevosita O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenov ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. Adib qoraqalpoq nasriga nafaqat yangi mavzularni olib kirdi, balki voqealar rivoji ortida yashiringan inson qalbi fojialarini, shaxsning o'zi va tashqi muhit bilan muttasil ruhiy kurashini tahlil qilishning mukammal badiiy usullarini yaratdi.

Yozuvchi ijodining gultoji hisoblangan "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi, xususan, uning tarkibidagi "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar" va "Tushunmovchiliklar" romanlari qoraqalpoq milliy xarakterining lirik-epik tasviridan chuqur analitik psixologizmga o'tish bosqichini yaqqol namoyon etuvchi monumental asarlardir.

Trilogiyaning birinchi kitobi bo'lmish "Mamanbiy afsonasi" romanida markaziy qahramon Mamanbiy obrazi orqali yetakchilik, xalq taqdiri uchun mas'uliyat va shaxsiy erk o'rtasidagi ekzistensial ziddiyatlar yuksak mahorat bilan yoritilgan [6, 120].

To'lepbergen Qayipbergenov Mamanbiy an'anaviy dostonlardagi kabi nuqsonsiz va bir qolipdagi alp qahramon sifatida emas, balki ichki ziddiyatlar girdobida qolgan, har bir qarorining fojiaiy yukini qalbidan o'tkazgan tirik inson sifatida gavdalandiradi.

Asarda Mamanbiyning Xiva xonligi elchilari va o'z urug'doshlari bilan bog'liq diplomatik hamda ijtimoiy munosabatlari tasvirlangan lavhalarda uning tashqi vazminligi bilan ichki ruhiy to'liqlanishlari o'rtasidagi nomuvofiqlik chuqur psixologik tahlil obyektiga aylanadi. Yozuvchi qahramonning reallikni chuqur his qilishi, xalqining tarqoqligidan iztirob chekishi hamda kelajak oldidagi qo'rquvlarini muallif nutqi va "qalb dialektikasi" vositasida ochib beradi. Mamanbiyning tunlari uyqusiz o'tishi, Xiva xonining zug'umlari qarshisida o'z vijdoni bilan yuzma-yuz qolishi tasvirlari o'quvchiga qahramonning nafaqat ijtimoiy qiyofasini, balki nevrotik tashvish va yolg'izlik hissi bilan to'yingan murakkab ruhiy olamini ham yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi [5, 54].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adib psixologizmining keyingi tizimli bosqichi trilogiyaning ikkinchi romani - "Baxtsizlar" asarida yanada yuksak darajaga ko'tariladi [7, 88–92]. Mazkur asarda inson ruhiyatining eng murakkab holatlari, ya'ni ochlik, qashshoqlik, ijtimoiy zulm va o'lim xavfi ostida qolgan shaxsning ruhiy evrilishlari tadqiq etiladi. Asar qahramonlari Jumagul, Erpolat va Madreym shunchaki ijtimoiy adolatsizlik qurbonlari emas, balki ma'naviy-ruhiy sinovlar maydoniga tashlangan shaxslardir.

Ayniqsa, Jumagul obrazi ruhiy tahlilida yozuvchi ayol qalbining nafaqat jismoniy azoblarga, balki ma'naviy tahqirlarga ham qanday bardosh berishini ko'rsatadi. Jumagulning urug'chilik qonun-qoidalari va feodal qarashlar qurshovidagi iztiroblari asarda bevosita ichki monologlar vositasida ifodalanadi. Yozuvchi qahramonning tashqariga ayta olmagan, jamiyat tomonidan qabul qilinmaydigan isyonkor fikrlarini uning pinhona o'y-xayollari orqali ochib beradi.

Bu jarayonda tush motivi ham muhim katarzis vazifasini bajaradi. Jumagul va boshqa qahramonlarning tushlarida namoyon bo'ladigan ramziy timsollar, ajdodlar ruhi bilan muloqot qilish yoki cheksiz sahroda adashib qolish motivlari ularning ong ostidagi qo'rquv, aybdorlik va ruhiy iztiroblarini majoziy tarzda ifodalaydi.

To'lepbergen Qayipbergenov insonning tabiat bilan aloqasini ham sof psixologik maqsadlarga bo'ysundiradi. Asarda qo'llanilgan ruhiy parallelizm usuli, ya'ni Amudaryoning vahshiyona toshishi, Ustyurt platosidagi shiddatli bo'ronlar yoki jazirama cho'l qurg'oqchiligi shunchaki geografik fon emas, balki qahramonlar taqdiri fojialar va ularning qalbida kechayotgan ruhiy inqirozlar bilan uyg'un holda tasvirlanadi [10, 78]. Masalan, daryoning qirg'oqni yuvib ketishi qahramon hayotidagi eski tartiblar va ma'naviy tayanchlarning yemirilishiga ramziy ishora vazifasini bajaradi.



Trilogiyaning yakuniy qismi bo'lgan "Tushunmovchiliklar" romanida esa psixologizm ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Bu yerda shaxs va tizim o'rtasidagi ziddiyat, avlodlar almashinuvi jarayonidagi g'oyaviy hamda ruhiy begonalashuv muammosi tahlil qilinadi [8, 140]. Qahramonlarning o'zaro muloqotlaridagi tushunmovchiliklar, so'z ortiga yashiringan haqiqatlar yozuvchi tomonidan chuqur subyektiv tahlil qilinadi.

To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida psixologik portret yaratish borasida ham yuksak mahorat namoyon etgan. U qahramonlarining tashqi qiyofasi, ko'z qarashlari, qo'l harakatlari va nutqidagi to'xtalishlarni (pauzalarni) ularning ichki ruhiy holatining o'ziga xos barometri sifatida tasvirlaydi. Qahramonning labi titrashi, ko'zlarini olib qochishi yoki uzoq sukut saqlashi uning qalbida kechayotgan kuchli ruhiy iztirob va ichki ikkilanishlardan dalolat beradi.

Adibning "Qoraqalpoq qizi" romanidagi Guljamila obrazi ham milliy mentalitet doirasida ayol ongining o'zgarishi, ruhiy uyg'onishi va an'anaviy qoliplarni buzib chiqish jarayonini psixologik jihatdan izchil asoslab bergan yorqin badiiy obrazdir [9]. Guljamila oddiy va itoatkor qizdan o'z haq-huquqini anglaydigan, ruhiy jihatdan mustaqil shaxsga aylanganig qadar murakkab hayot yo'lini bosib o'tadi. Yozuvchi ushbu o'zgarishlarning har bir bosqichini subyektiv va obyektiv omillar uyg'unligida badiiy asoslaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Binobarin, To'lepbergen Qayipbergenov nasridagi inson psixologiyasi tahlili subyektivizmga berilmagan, aksincha, realistik hayot haqiqati bilan sug'orilgandir. Adib har bir obrazning xatti-harakatini, uning ruhiy dunyosidagi o'zgarishlarni qoraqalpoq xalqining asriy yashash tarzi, diniy va falsafiy dunyoqarashi, shuningdek, tarixiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etadi. Qoraqalpoq insoniga xos bo'lgan vazminlik, ichki poetik tuyg'ularga bo'ylik, turg'unlik va ayni paytda metindek matonat adib yaratgan xarakterlarning asosini tashkil etadi [11].

Yozuvchi inson qalbini tahlil qilar ekan, individual taqdirlar misolida butun bir millatning ruhiy qiyofasini, uning tarixiy fojealar va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida qanday evrilishlarga uchraganini ko'rsatib bera oldi. Shu bois ham T. Qayipbergenov asarlaridagi badiiy psixologizm qoraqalpoq milliy adabiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo'lib, u bugungi kunda ham inson mohiyatini, uning ichki go'zalligi va murakkabligini anglashda eng mukammal ilmiy-badiiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Matnda qo'llanilgan ichki tahlil metodlari va xarakterlar evolyutsiyasi keyingi davr qoraqalpoq prozasining fundamental rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berdi.

Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi tasviri, xususan, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenov ijodi misolida olib borilgan badiiy-nazariy tadqiqotlarimiz shuni yaqqol ko'rsatadiki, badiiy asarda shaxs ruhiyatini yoritish shunchaki adabiy usul emas, balki butun bir xalqning o'ziga xos ma'naviy-tarixiy qiyofasini, asrlar davomida shakllangan mentalitetini anglashning eng muhim kalitidir. Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, uning ma'naviy olamini boyitish hamda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug'vor maqsadlar ilgari surilayotgan bugungi kunda adabiyotning, jumladan, qoraqalpoq milliy nasrining ham bosh obyekti hisoblangan inson psixologiyasini o'rganish o'zining nihoyatda dolzarb ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatimiz tomonidan adabiyot va madaniyat sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, xususan, qoraqalpoq adabiyoti namoyandalarining merosiga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom asarlar qatiga yashiringan ruhiy-falsafiy qatlamlarni zamonaviy ilm-fan tafakkuri nuqtai nazaridan qayta kashf etishga zamin yaratadi. To'lepbergen Qayipbergenov o'zining "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi orqali mintaqada adabiyotida badiiy psixologizmning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Adib qoraqalpoq nasrini an'anaviy lirik-epik tasvir va voqealarning shunchaki tashqi xronologik bayonidan qutqarib, voqealar markaziga insonning ichki dunyosini, uning ongi va ong osti ziddiyatlarini, "qalb dialektikasi"ni olib kirdi.

Trilogiya qahramonlari bo'lmish Mamanbiyning el taqdiri va shaxsiy vijdoni o'rtasidagi og'ir ekzistensial tanlovi, Jumagulning ijtimoiy va feodal kishanlar girdobidagi unsiz iztiroblari kabi holatlar muallif tomonidan quruq bayon qilinmaydi, balki o'quvchini qahramon bilan birga yashashga, uning qalb isyonlarini his qilishga majbur etadigan darajada yuksak tahlil qilinadi. Adib qahramonlarini ideallashtirmaydi, ularni nuqsonsiz doston pahlavonlari sifatida emas, balki qo'rquvlari, ikkilanishlari va zaifliklari bo'lgan, hayotiy ziddiyatlar qarshisida ezilib, o'zining munosib yo'lini izlayotgan tirik insonlar sifatida tasvirlaydi.

Yozuvchi shaxs ruhiyatini ochib berishda qo'llagan ichki monologlar, ramziy ma'noga ega bo'lgan tush motivlari hamda tabiat tasvirining qahramon kechinmalariga uyg'unlashtirilishi - ruhiy parallelizm (masalan, daryo toshqinlari va sahro bo'ronlarining inson qalbida kechayotgan bo'hronlarga monand ifodalanishi) kabi usullar qoraqalpoq prozasi imkoniyatlarini jahon realizmi darajasiga ko'targanligining yorqin isbotidir.



Bu asarlardagi psixologik tahlillar qahramonning nafaqat muayyan vaziyatdagi holatini, balki butun bir xalq taqdiridagi fojialar shaxs ruhiyatida qanday aks-sado berganini namoyon etadi. Umuman olganda, To'lepbbergen Qayipbergenov asarlarida mukammal shakllangan badiiy psixologizm va inson qalbini tahlil qilish san'ati keyingi avlod yozuvchilari uchun yuksak mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi. Ushbu nasriy asarlarda aks etgan teran ruhiy jarayonlar, shaxsiy va ijtimoiy nizolar qoraqalpoq insonining metin irodasi va yuksak insoniy mato-natini tasdiqlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi tasvirining evolyutsion tadqiqi milliy xarakterning asl mohiyatini yoritish, bugungi globallashuv davrida insonning ma'naviy butunligini saqlab qolish va jamiyatimizda komil insonni tarbiyalashdek olijanob maqsadlarga bevosita xizmat qiladi. Ushbu yuksak adabiy merosni ruhiy-psixologik jihatdan o'rganish mamlakatimiz madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining muhim ajralmas qismi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Jild 1. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - B. 312.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2026-yil 3-iyun, № 112.
3. Ginzburg L.Ya. O psixologicheskoy proze. - Leningrad: "Xudojestvennaya literatura", 1977. - S. 443.
4. Sultonov K. Adabiy portretlar: Tanqidiy-biografik ocherklar. - Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1985. - B. 216.
5. Bahadirova S. To'lepbbergen Qayipbergenov hamda qoraqalpoq nasrida badiiy psixologizm muammolari. - Toshkent: "Fan", 1995. - B. 180.
6. Qayipbergenov T. Qoraqalpoq dostoni. Trilogiya. 1-kitob: Mamanbiy afsonasi. Roman. - Toshkent: "Sharq" NMAK, 2010. - B. 384.
7. Qayipbergenov T. Qoraqalpoq dostoni. Trilogiya. 2-kitob: Baxtsizlar. Roman. - Toshkent: "Sharq" NMAK, 2010. - B. 416.
8. Qayipbergenov T. Qoraqalpoq dostoni. Trilogiya. 3-kitob: Tushunmovchiliklar. Roman. - Toshkent: "Sharq" NMAK, 2011. - B. 352.
9. Qayipbergenov T. Qoraqalpoq qizi. Roman. - Nukus: "Qaraqalpaqstan", 1993. B. -288.
10. O'razymbetov Q. Házirgi qaraqalpoq romanlarında psixologiyalıq tahlil usılları // ÓZFA Qaraqalpaqstan bólimi Xabarchısı. - Nókis, 2018. - № 3. - B. 76-81.
11. Mambetov K. Qaraqalpoq ádebiyatınıń tariyxı. - Nókis: "Bilim", 1995. - B. 210.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.